

“TASDIQLANGAN”
“KAFIL SUG'URTA” AJ
Boshqaruv raisi F.A.Artikov
2024- yil 5- yanvar

AHOLINING IMORATLARINI IXTIYORIY SUG'URTA QILISH UCHUN OMMAVIY OFERTA

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) “**KAFIL-SUG'URTA**” AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi jismoniy shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yullangan quyidagi sug'urta shartlarida sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bulib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Ofepta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchining majburiyatlari (sug'urtaning amal qilishini boshlanishi) Sug'urta qildiruvchi tomonidan imoratni ko'zdan kechirishga (monitoringga) va foto/video qayd etishga takdim etilganidan keyin, shuningdek Sug'urta qilingan imoratni Tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin kuchga kiradi. Imoratni tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta polisi olingan paytdan e'tiboran 30 (o'ttiz) kun ichida imzolanmagan takdirda, Sug'urta shartnomasi tuzilmagan deb tan olinishi mumkin va to'langan sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchining Sug'urtalovchi rahbariyatiga yo'llangan yozma arizasi asosida qaytarilishi lozim. Sug'urta shartnomasi tuzilmagan deb tan olinishi munosabati bilan sug'urta mukofotini olish uchun Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta polisida ko'rsatilgan muddat tugashiga qadap murojaat qilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

- mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;

- arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni angelaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili va mobil telefon raqami mavjudligi talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritish Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasi talablariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi va Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan boshqa jismoniy shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlari saqlanishini va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. «Oferta», «Sug'urta shartnomasi» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalar, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga hamda "KAFIL-SUG'URTA" AJ Ustaviga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining (bundan keyin «Sug'urta qildiruvchi» deb yuritiladi) imoratlarini - yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, suv toshqini, sel, yashin urishi, zilzila, do'l, qalin qor yog'ishi, to'satdan qattiq sovuq tushishi natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi natijasida moliyaviy zararini qoplashni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan Litsenziya asosida 8 va 9-klasslarga oid sug'urta turi hisoblanadi.

1.2. "KAFIL-SUG'URTA" MChJ (keyingi matnlarda «Sug'urtalovchi» deb yuritiladi) mazkur Qoidalar asosida O'zbekiston Respublikasida Sug'urta qildiruvchilarning foydalanishga yaroqli xususiy mulki hisoblangan doimiy bir joyga qurilgan, o'rnatilgan va devorlari hamda tomi bo'lgan imoratlar- uylar; ko'p kvartirali bitta yoki yaqin, zich joylashgan, obodonlashtirish elementlari bo'lgan umumiy yer uchastkasi bilan qamrab olingan bir nechta uydagi xususiy imoratlar (keyingi matnlarda «imoratlar» deb yuritiladi) bo'yicha zararni Sug'urta qildiruvchiga shartnomada (sug'urta polisida) kelishilgan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta tovonini to'lash) majburiyatini oladi.

II. ISHLATILADIGAN ASOSIY ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFI:

- | | |
|-----------------------------------|---|
| 2.1. Sug'urtalovchi | O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Litsenziyasi asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan "KAFIL-SUG'URTA" AJ. |
| 2.2. Sug'urta qildiruvchi | Sug'urtalovchi bilan Oferta shartlarida Sug'urta qilish shartnomasini tuzgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs. |
| 2.3. Sug'urta polisi | Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan real vaqt rejimida shakllantirilgan seriya, raqamiga ega bo'lgan sug'urta qilish amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat. |
| 2.4. Sug'urta hodisasi | Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan, haqiqatda bir vaqtda sodir bo'lgan, sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davrida va sug'urta hududida yuz bergan bitta yoki bir nechta hodisa bo'lib, u yuz berishi bilan Sug'urtalovchida sug'urta tovonini to'lash majburiyati yuzaga keladi. |
| 2.5. Sug'urta davri | Sug'urtalovchida sug'urta tovonini to'lash majburiyatlari amal qiladigan vaqt davri. Sug'urta davri sug'urta mukofoti to'langan va taraflar tomonidan tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin keladigan kundan e'tiboran boshlanadi va bir yil davomida amal qiladi. |
| 2.6. Sug'urta tovonini | Sug'urta shartnomasida bayon qilingan sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zararni qoplash uchun Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi. |
| 2.7. Aholi imoratlari | O'zbekiston Respublikasida Sug'urta qildiruvchilarning foydalanishga yaroqli xususiy mulki hisoblangan doimiy bir joyga qurilgan, o'rnatilgan va devorlari hamda tomi bo'lgan imoratlar- yashash uylari va boshqa ko'chmas mulklari hamda ko'p kvartirali uylardagi xonadonlar. Devorlar, qurilishi bitmagan imoratlar sug'urta qilishga qabul qilinmaydi va Kompaniya ularni sug'urta qilish uchun javobgar bo'lmaydi. |
| 2.8. Sug'urtalangan imorat | Sug'urta polisida ko'rsatilgan, sug'urta himoyasi taqdim etiladigan imorat. |
| 2.9. Sug'urta puli | Sug'urta hodisasi (sug'urta tavakkalchiliklari) yuzasidan sug'urta shartnomasi bilan aniqlanadigan va sug'urta polisida ko'rsatilgan pul mablag'lari summasi bo'lib, uning doirasida Sug'urtalovchi Sug'urta |

- qildiruvchiga yoki uni olishga haqli bo'lgan boshqa shaxsga sug'urta tovonini to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.
- 2.10. Sug'urta mukofoti** Sug'urtalovchiga sug'urta obyektni sug'urtalash uchun Sug'urta shartnomasiga (sug'urta polisiga) asosan to'lanadigan milliy valyutadagi pul mablag'i.
- 2.11. Fors-major holati** Favqulodda va oldindan ko'rilmagan xarakterda bo'lib, tomonlar majburiyatlarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadi hamda ularning xohish irodasiga bog'liq bo'lmay, aqliy tadbirlar bilan uning oldini olib bo'lmaydigan holat;
- 2.12. Tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi-** Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchining vakillari tomonidan tuziladigan va imzolananadigan hujjat bo'lib, unda cyg'ypta qilish boshlanishiga qadar imoratda mavjud bo'lgan nuqsonlar (agap ular mavjud bo'lsa) ko'rsatiladi va ular bo'yicha Sug'urtalovchi zimmasida majburiyatlar bo'lmaydi. Tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasi faqat Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining vakillariga sug'urta polisining nusxasi va sug'urtaga qabul qilinayotgan imoratning kadastr hujjati taqdim etilganida tuzilishi mumkin. Imoratni tashqi ko'zdan kechirish dalolatnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining Call markaziga **71-200-04-14** raqami orqali ko'ng'iroq qilgan holda ko'zdan kechirish vaqti va joyi haqida oldindan kelishib olishi, o'z familiyasi va ismini, polis raqamini va o'ziga qulay bo'lgan ko'zdan kechirish joyini aytishi zarur.

III. MAXSUS ATAMALAR

Oferta bo'yicha maxsus atamalar quyidagi ma'nolarga ega:

3.1. Yong'in – o't oldirish va ushlab turish uchun maxsus mo'ljallangan joylardan tashqariga ixtiyoriy ravishda tarqalish xususiyatiga ega olov.

3.2. Portlash – gaz yoki bug'larning kengayishiga asoslangan, katta miqdordagi energiyaning shiddat bilan otilib chiqishi. Rezervuar portlashi bo'lib rezervuar ichkarisida va tashqarisidagi bosim tenglashishiga olib keladigan darajada rezervuar devorlarining yorilishi. Agar rezervuar ichida kimyoviy reaksiyaning tez kechishi natijasida portlash sodir bo'lsa, uning devorlari yorilmagan bo'lsa ham, bundan yetkazilgan zarar sug'urta bilan qoplanadi. Vakuum yoki gazlarning siyraklashishi natijasida yetkazilgan zarar sug'urta qilinmaydi.

3.3. Yashin urishi – mol-mulkdan mahrum bo'lishga (nobud bo'lishiga) olib keluvchi, unga yashinning to'g'ridan-to'g'ri tegishi (yashin – bulutlar o'rtasidagi yoki bulut va yer o'rtasidagi elektr razryadi). Yashinning issiq ta'siri va yashin oqibatida havo bosimi ta'siri ham sug'urta bilan qoplanadi.

3.4. Zilzila – yer qa'rida muntazam sodir bo'ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranishi bilan kuzatiladigan tabiiy jarayonlar natijasi.

3.5. Suv toshqini – daryo, ko'l, dengiz sathining ko'tarilishi yoki damba, to'g'on buzilishi natijasida hududni sezilarli darajada suv bosishi.

3.6. Ko'chki – shamol yoki yer usti yoki yerosti suvlarning ta'sirida, qirg'oq yon bag'irlarini yuvilishi va jinslarning og'irlik kuchi ta'sirida yoki zilzila natijasida tog' jinslarining qulashi.

3.7. Yer siljishi – dengizlar, ko'llar, daryolar, jarliklar yaqinida, chuqurliklarning, qoyalarning tik qiyaliklari, shuningdek tog'larda o'z og'irlik kuchi ta'sirida yer massasining sekin siljishi.

3.8. Tuproq cho'kishi- favqulodda ko'p yog'ingarchilik oqibatida namlikning ortishi tufayli ma'lum bir joyda yoki umumiy maydonda tuproq zichligining tubdan o'zgarish jarayoni.

3.9. Sel - Qorlarning jadal erishi, kuchli jala yog'ishi natijasida tog' vodiylari, soylar va jarlardan oqib keladigan, katta vayrongarchilik kuchiga ega bo'lgan qisqa muddatli loyqa yoki loyqatosh aralash kuchli suv oqimi.

3.10. Bo'ron- tezligi 15 m/s dan ortiq bo'lgan kuchli shamol. Shamol tezligi O'zbekiston Respublikasi Gidrometmarkazining hududiy muassasalari ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

3.11. Dovul – tezligi 29 m/s dan ortiq bo'lgan kuchli shamol. Shamol tezligi O'zbekiston Respublikasi Gidrometmarkazining hududiy muassasalari ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

3.12. Do‘l urishi – do‘lning bevosita ta‘siri oqibatida sug‘urtalangan mol-mulkni har qanday yo‘qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

3.13. Jala – 12 soat yoki undan kam vaqtda 30 mm yoki undan ortiq katta miqdorda yog‘ingarchilik bo‘lishi bilan kuzatilgan kuchli yomg‘ir.

3.14. Qalin qor yog‘ishi – bunday qor yog‘ishi ushbu hudud uchun kamdan-kam (g‘ayrioddiy) holat bo‘lishi sharti bilan qisqa vaqt oralig‘ida odatdagidan ko‘p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtda 20 mm va undan ko‘p qor yog‘ishi. Xo‘jasizlik sababli sekin-asta ko‘p miqdorda qor to‘planishi qalin qor yog‘ishidan farqlanadi.

IV. UMUMIY SHARTLAR

4.1. Sug‘urta shartnomasini tuzish va uning kuchga kirishi tartibi:

4.1.1. Mazkur sug‘urta shartnomasi Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta xizmatlarini sotish va ko‘rsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjat bo‘lib hisoblanadi;

4.1.2. Sug‘urta shartnomasi (sug‘urta polisi) Sug‘urta qildiruvchi tomonidan Sug‘urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda takdim etilgan ma‘lumotlar asosida shakllanadi;

4.1.3. Sug‘urta qildiruvchi elektron arizaning to‘ldirilishi shart bo‘lgan kataklarini mustaqil va arizada ko‘rsatilgan hujjatlarning aslidagi ma‘lumotlarga qat‘iy muvofiq holda to‘ldiriladi;

4.1.4. Sug‘urta qildiruvchi arizada ko‘rsatilgan hujjatlarning ishonchliligi va asliga to‘g‘ri ekanligi uchun zimmasiga javobgarlikni oladi, shuningdek arizada ko‘rsatilgan hujjatlarni ularning asliga muvofiq bo‘lmaganida sug‘urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sug‘urtalovchi sug‘urta to‘voni to‘lashni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozi bo‘ladi;

4.1.5. Arizada ko‘rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning ma‘lumotlari avtomatik ravishda Sug‘urta shartnomasiga (Sug‘urta polisi) kiritiladi.

4.1.6. Sug‘urta shartnomasi tuzilishiga qadar Sug‘urta qildiruvchi sug‘urtaga taklif qilinayotgan imoratning qiymatini ko‘rsatgan holda sug‘urta to‘lovini mustaqil ravishda aniqlashi va sug‘urta pulini hisoblab chiqarishi mumkin. Bunda sug‘urta puli ularning haqiqiy qiymatidan oshmasligi kerak. Bundan tashqari tomonlar hohishiga ko‘ra haqiqiy qiymat quyidagilar asosida aniqlanishi mumkin:

- savdo tashkiloti tomonidan berilgan ma‘lumotnoma-hisobvara q yoki imoratning oldi-sotdi shartnomasi;
- mustaqil baholovchi tomonidan amalga oshirilgan uy joy imoratining haqiqiy qiymatini baholash.

4.1.7. Sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan past qilib belgilangan taqdirda, sug‘urta hodisasi yuz berganida Sug‘urtalovchi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasi talablariga muvofiq Sug‘urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) ular ko‘rgan zararni sug‘urta pulini sug‘urta qiymatiga nisbatiga mutanosib ravishda qoplab beradi.

4.1.8. Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalovchining axborot tizimi yordamida sug‘urta qoplamalarining tanlangan variantlariga bog‘liq ravishda sug‘urta pulini mustaqil aniqlaydi, Sug‘urtalovchining axborot tizimi esa Sug‘urta qildiruvchi tomonidan ko‘rsatilgan ma‘lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug‘urta mukofoti summasini shakllantiradi hamda Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta mukofotining shakllantirilgan summasiga rozi bo‘lgan taqdirda, uni to‘lashga qadar Sug‘urta qildiruvchi mazkur Oferta matni bilan tanishish majburiyatini oladi.

4.1.9. Ofertada va Qoidalarda taklif qilinadigan sug‘urta shartlariga rozi bo‘lgan taqdirda, Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalovchining axborot tizimida o‘z roziligini tasdiqlaydi va Sug‘urta shartnomasini tuzish uchun arizani (bundan buyon matnda Ariza deb yuritiladi) Sug‘urtalovchining axborot tizimidan foydalangan holda onlayn tarzda to‘ldirishga kirishadi.

4.1.10. Arizani to‘ldirishda Sug‘urtalovchi uchun sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan barcha zarur ma‘lumotlarni va sug‘urta hodisasi yuz berishidan ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar miqdorini (sug‘urta tavakkalchiligini) ko‘rsatish talab qilinadi. Barcha ma‘lumotlar hujjatlarning asliga qat‘iy muvofqlikda ko‘rsatilishi kerak.

4.1.11. Ariza to‘ldirilganidan keyin, Sug‘urtalovchining axborot tizimi tomonidan «Sug‘urta

mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasidan foydalanishga avtomatik tarzda ruxsat beriladi.

4.1.12. Sug'urta shartnomasi taraflari Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta polisining olinishi Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) lozim darajada imzolanganligini tasdiqlaydi.

4.1.13. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta mukofotini to'laganligi fakti Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan tasdiqlangan sana mazkur Ommaviy oferta aksept qilingan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadir.

4.2. Sug'urta shartnomasi (polislari) bo'yicha to'lovni amalga oshirish tartibi:

4.2.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha to'lovni amalga oshirish Sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan axborot (onlayn) tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi;

4.2.2. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga keyingi qayta yo'naltirish uchun ariza qabul qilinganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi arizani to'ldirayotganida ko'rsatib o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi;

4.2.3. SMS-xabar tasdiqlash kodi bilan birga olinganidan keyin Sug'urta qildiruvchi elektron to'lov tizimini tanlashi zarur, undan keyin u sug'urta mukofotining hisoblangan summasini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish uchun tanlangan to'lov tizimining saytiga avtomatik tarzda qayta yo'llanadi;

4.2.4. Sug'urta polisi qiymati to'langanligi haqidagi tasdiq olinganidan keyin Sug'urtalovchining axborot tizimi Sug'urta polisini rasmiylashtirishni elektron shaklda avtomatik tarzda amalga oshiradi, uni Sug'urta qildiruvchining elektron pochta manziliga yo'llaydi va undan keyin Sug'urta polisining seriyasi va raqami, Sug'urta polisi elektron tarzda jo'natilganligi fakti haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan SMS-xabar jo'natilishi yo'li bilan Sug'urta qildiruvchini xabardor qiladi.

4.2.5. Sug'urtalovchi to'lov provayderining harakatlari/harakatsizligi uchun, shuningdek Sug'urta qildiruvchining elektron to'lovlar tizimi va internet orqali to'lash bilan bog'liq zararlari va tavakkalchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

4.2.6. Sug'urta mukofotini bank kartasi bilan to'lash bevosita Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) - karta egasi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi.

4.2.7. Sug'urtalovchining axborot tizimida «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasini bosish bilan, shuningdek shakllantirilgan sug'urta mukofotini to'lagan holda Oferta yo'llangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq mazkur Oferta shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

4.3. Sug'urta shartnomasini (sug'urta polisini) Sug'urta qildiruvchining tashabbusiga ko'ra muddatidan ilgari tugatish. Sug'urta mukofotini qaytarish:

4.3.1. Agap Sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin sug'urta tavakkalchiligining mavjudligi va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolsa, shuningdek sug'urta qilingan mol-mulk sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lsa Sug'urta shartnomasi o'zi tuzilgan muddat kelishiga qadap tugatiladi.

4.3.2. Sug'urta shartnomasini (Sug'urta polisini) Sug'urta qildiruvchining tashabbusiga ko'ra muddatidan ilgari tugatish Sug'urtalovchining manziliga bekor qilish haqidagi yozma arizani yo'llash orqali amalga oshiriladi.

4.3.3. Sug'urta shartnomasi muddatidan avval bekor qilinganda, sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining sarf-xarajatlari uchun 35 foiz miqdorida chegirib qolgan holda sug'urta muddatining o'tmagan davri uchun qaytariladi.

4.3.4. Agar Sug'urtalovchining sug'urta shartnomasini muddatidan avval bekor qilish talabi, Sug'urta qildiruvchining o'z majburiyatlarini bajarmaganligi bilan bog'liq bo'lsa, u holda to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

4.3.5. Sug'urta shartnomasini (Sug'urta polisini) Sug'urta qildiruvchining tashabbusiga ko'ra

muddatidan ilgari tugatish (bir taraflama tartibda) faqat qonun hujjatlarida va sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan va yo'l qo'yilgan hollarda amalga oshiriladi.

SUFURTALOVCHINING REKVIZITLARI:

To'liq nomi:

«Kafil Sug'urta» Aksiyadorlik jamiyati

Pochta manzili:

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 59-uy.

Elektron manzili (rasmii internet resursi/elektron pochta):

www.kafil.uz / info@kafil.uz

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar:

Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007- yilning 24- dekabrda 13- sonli reyestr raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya to'g'risida ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2022- yilning 25- fevralda SF 00038-sonli Litsenziya berilgan.

V. SUG'URTA SUBYEKTLARI

Ushbu Oferta shartlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasida yashovchi fuqarolar hamda Litsenziya asosida faoliyat yurituvchi "KAFIL-SUG'URTA" AJ va uning hududiy bo'linmalari Sug'urta sub'ekti hisoblanadi.

VI.SUG'URTA OBYEKTALARI

Sug'urta qildiruvchilarning foydalanishga yaroqli xususiy mulki hisoblangan doimiy bir joyga qurilgan, o'rnatilgan va devorlari hamda tomi bo'lgan imoratlar- yashash uylari va boshqa ko'chmas mulklari hamda ko'p kvartirali uylardagi xonadonlar Sug'urta ob'ektlari hisoblanadi.

VI.SUG'URTA HODISASI

7.1. Mazkur Oferta qoidalarga asosan Sug'urta qildiruvchiga tegishli bo'lgan imoratlar va uy-ro'zg'or buyumlarining - yong'in, portlash, qattiq shamol, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, suv toshqini, sel, yashin urishi, zilzila, do'l, qalin qor yog'ishi, to'satdan qattiq sovuq tushishi natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi Sug'urta hodisasi deb hisoblanadi.

7.2. Quyidagilar Sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- Sug'urta qildiruvchining qo'pol ehtiyotsizligi, bila turib (qasddan) amalga oshirgan hatti-harakati yoki harakatsizligi natijasida uning imoratiga zarar yetkazilsa, (Sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxslar hayoti, salomatligi, qadr qimmati, or-nomusini himoya qilish yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog'liq bo'lgan hollar bundan mustasno);

- Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasi tuzish vaqtida imoratlar haqida yolg'on ma'lumotlar berilsa.

7.3. Mazkur Ofertaga asosan quyidagi siyosiy tavsifga ega bo'lgan hodisalar tufayli, imoratlarga yetkazilgan zarar qisman yoki to'liq qoplanmaydi:

- urush va harbiy harakatlar (urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar), g'alayon, inqilob, qo'zg'olon, isyon, fitna, ish tashlash, lokaut, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik harakatlari, musodara qilish, rekvizitsiya, hukumat yoki uning tarkibiy qismi topshirig'iga asosan buzib tashlanishi yoki unga zarar yetishi harakatlari, yadro reaksiyasi, yadro nurlanish yoki radioaktiv zararlanishi yoki nobud bo'lishi holatlarida.

VIII. SUG'URTA PULI, SUG'URTA TARIFI VA SUG'URTA MUKOFOTINI HISOBLASH VA TO'lash TARTIBI

8.1.1. Aholining imoratlarini ixtiyoriy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta summasining maksimal miqdori **100 000 000,00 (bir yuz million)** so'mni tashkil etadi. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi, Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi.

8.1.2. Ofertaning 7.1-bandida nazarda tutilgan sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha sug'urta puli Sug'urta polisi berilayotgan paytda sug'urtaga qabul qilinayotgan imoratning haqiqiy (sug'urta) qiymatidan ortiq bo'lmasligi lozim.

8.1.3. Mazkur Oferta bo'yicha ma'lum muddatga tuziladigan sug'urta polisi bo'yicha sug'urta mukofoti yillik **0,3 foiz** miqdorida, sug'urta qildiruvchining tanlagan sug'urta summasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

8.2. Sug'urta mukofoti to'lovi Sug'urta qildiruvchi bank kartasi bilan bevosita karta egasi tomonidan amalga oshiriladi. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi. Sug'urta mukofoti qo'shimcha qiymat solig'isiz hisoblanadi.

IX. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

9.1. Sug'urtalovchining huquqlari:

- sug'urtalangan imoratlarining holatini, saqlanish sharoitini Sug'urta shartnomasi tuzishda va amal qilish davrida hamda Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda tekshirish monitoringini o'tkazish;
- Sug'urta qildiruvchi Sug'urta shartnomasini shartlarini bajarmaganda, Sug'urta shartnomasini bekor qilish;
- sug'urtalangan imoratlarining shikastlanishiga aybdor shaxslar aniqlangan hollarda to'langan Sug'urta tovonini ulardan undirib olish haqida da'vo qilish;
- Sug'urta tovonni miqdorini aniqlash uchun Sug'urta qildiruvchidan mutasaddi tashkilotlarning ma'lumotnomalarini, ekspertlar xulosalarini taqdim etishni talab qilish;
- Sug'urta qildiruvchining taqdim etgan hujjatlarini to'g'riligini tekshirish va zarur holatlarda boshqa kerakli hujjatlarni talab qilish;
- Sug'urta qildiruvchi oldidagi Sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari to'liq bajarilganida, Sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish.

9.2. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- Sug'urtalangan imoratlar bo'yicha Sug'urta hodisasi to'g'risida xabarnoma olgach, imoratga yetkazilgan zararni aniqlash va tegishli tashkilotlar vakili ishtirokida ma'lumotnoma tuzish;
- Sug'urta hodisasi oqibatida sug'urtalangan imoratlarga yetkazilgan zarar bo'yicha Sug'urta tovonni miqdorini hisoblab chiqish va dalolatnoma asosida belgilangan muddatda to'lash.

9.3. Sug'urta qildiruvchining huquqi:

- Sug'urta shartnomasi amal qilish davrida Sug'urta shartnomasiga doir savollarga Sug'urtalovchidan to'liq javoblar olish;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda ushbu Qoidada ko'rsatilgan tartibda Sug'urta tovonini olish.

9.4. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

- sug'urtalangan imoratni tashqi ko'zdan kechirishda va dalolatnomani tuzishda Sug'urtalovchiga yaqindan ko'maklashish;
- sug'urtalangan imoratni shikastlanishi oldini olish uchun barcha choralarni ko'rish;
- Sug'urta shartnomasidagi shartlarni belgilangan muddatlarda bajarish, ularni buzmaslik uchun barcha choralarni ko'rish;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchiga belgilangan muddatda, ya'ni 3 (uch) kun ichida yozma ravishda xabarnoma berish va Sug'urta tovonini aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni taqdim qilish;
- Sug'urta hodisasi ro'y berganda zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan fotosurat yoki videotasmalar bilan Sug'urtalovchini ta'minlash;

- sug'urtalangan obyekt manzili o'zgarganda yoki sug'urta qildiruvchi shaxs vafot etganda Sug'urtalovchiga 10 kun ichida yozma ravishda xabarnoma berish;
- vafot etgan shaxsning vorisi Qonunchilikda belgilangan muddatda aniqlangandan so'ng Sug'urtalovchiga yozma ravishda xabarnoma berish;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda imoratni ta'mirlash va boshqa ishlarini Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda amalga oshirish.

X. SUG'URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO'LASH TARTIBI

10.1. Sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi va zararlangan yoki nobud bo'lgan imorati haqida sug'urtalovchiga 3 (uch) kun ichida yozma ravishda xabarnoma beradi.

10.2. Sug'urtalangan imorat shikastlanishini keltirib chiqaruvchi sug'urta hodisasi ro'y berganda, hodisa tafsilotlari va sababini aniqlash uchun Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi va xolis guvohlar ishtirokida dastlabki ma'lumotnoma tuziladi.

10.3. Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi), Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- Hodisa to'g'risida **Xabarnoma**;
- Sug'urta polisi nusxasi;
- hodisasini tasdiqlovchi mutasaddi tashkilotlar (IIB, YoXB, Gidremeteorologiya markazi va b.) ning hujjatlari;
- Sug'urta hodisasi natijasida zararlangan imorat fotosuratlarini;
- hodisa natijasida imoratning zararlangan yoki nobud bo'lganligini tasdiqlovchi Mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan tuzilgan ma'lumotnoma,
- hodisada aybdor shaxs bo'lganda, ularning tushuntirish xatlari;
- Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan Sug'urta hodisasiga oid boshqa ma'lumotlar.

Agar sug'urta hodisasini joyida o'rganish jarayonida, hodisa tafsilotlari va sababini hamda yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, yuqoridagi hujjatlarning ayrimlari talab qilinmasligi mumkin.

10.4. Sug'urtalovchi taqdim qilingan hujjatlar asosida imoratiga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlaydi va xolislar ishtirokida sug'urta hodisasini tasdiqlovchi dalolatnoma tuzadi.

10.5. Barcha tomonlar dalolatnomaga imzo qo'yadilar va imzo qo'yish jarayonida o'z e'tirozlarini dalolatnomada aks ettirishi mumkin.

10.6. Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'riligini tekshirishi va zarur holatlarda, sug'urta xodisasiga aloqador boshqa kerakli hujjatlarni talab qilishi mumkin.

10.7. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarni (Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi va hodisa tafsilotlari haqida ma'lumotnoma) Sug'urtalovchiga taqdim etishi shart.

10.8. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda zararlangan imoratni ta'mirlash, sotish, yoqib yuborish, yo'q qilish va boshqa ishlarni Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda (yozma ravishda) amalga oshiradi.

10.9. Sug'urta tovonini haqiqiy yetgan zarar miqdorida, agar Sug'urta shartnomasida Franshiza qo'llanilgan bo'lsa, ushbu Franshiza miqdori hisobga olinib, lekin shartnomada belgilangan Sug'urta puli miqdoridan oshmagan holda belgilanadi.

10.10. Mazkur Qoidaning 7.1. bandida qayd qilingan Sug'urta hodisasi ro'y berishi oqibatida imoratga yetkazilgan zarar miqdori quyidagi tartibda hisoblanadi:

T/r	Sug'urtalangan imoratning zararlangan qismlari nomi	Sug'urta summasiga nisbatan foizda
1	Poydevor	10 % gacha
2	Devorlar	22 % gacha
3	Parto'sin	11 % gacha
4	Tom yopmasi	15 % gacha
5	Pol	13 % gacha

6	Eshik va derazalar	16 % gacha
7	Pardozlash ishlari	10 % gacha
8	Boshqa ishlar	3 % gacha
	Jami	100 %

Kompaniya tomonidan sug'urta to'voni to'lovi yuqoridagi jadval bo'yicha va haqiqiy zarardan oshmagan holda amalga oshiriladi.

10.11. Sug'urta to'voni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasi hamda "O'zkommunxizmat" o'zbek agentligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy to'plamlardan foydalangan holda hisob kitob qilinib, lekin polisda belgilangan Sug'urta puli miqdoridan va bino qismlari uchun ajratilgan foizdan oshmagan holda belgilanadi.

10.12. Sug'urta puli Sug'urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchiga u ko'rgan zararni Sug'urta pulining Sug'urta qiymatiga bo'lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplaydi.

Sug'urta puli Sug'urta qiymatidan ortiq bo'lsa, shartnoma Sug'urta pulining Sug'urta qiymatidan ortiq bo'lgan qismida o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

10.13. Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqib, Sug'urta hodisasi ro'y berganligi yoki Sug'urta hodisasi ro'y bermaganligi haqida qaror qabul qiladi.

10.14. Sug'urta to'voni, sug'urta hodisasini tasdiqlovchi dalolatnomaga imzo qo'yilgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida Sug'urta qildiruvchiga to'lab beriladi.

10.15. Sug'urta to'voni Sug'urta shartnomasiga asosan Sug'urta qildiruvchining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10.16. Sug'urta hodisasi ro'y berganda, Sug'urtalangan imoratga tegishli boshqa yana amal qilinayotgan Sug'urta shartnomasi mavjud bo'lsa yoki zarar yetkazgan shaxsdan Sug'urta qildiruvchi foydasiga moddiy zarar undirilgan bo'lsa, to'langan yoki qoplangan zararni chegirib tashlagan holda Sug'urta to'voni to'lab beriladi.

XI. SUBROGASIYA

11.1. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida Sug'urtalovchiga o'tadi. Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqi uning tomonidan Sug'urta qildiruvchi va zarar uchun javobgar bo'lgan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

11.2. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalovchiga o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

11.3. Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug'urta qildiruvchining aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta to'vonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va ortiqcha to'langan Sug'urta to'vonini qaytarilishni talab qilishga haqli bo'ladi.

XII. SUG'URTA HODISASINI TAN OLINMASLIGI

12.1. Quyidagi hollarda Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasini tan olmasligi va imoratga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik olib bormaydi:

- imorat haqida oldindan noto'g'ri ma'lumot berilsa;
- Sug'urta qildiruvchi yoki oila a'zolaridan biri tomonidan qasddan qilgan harakatlari natijasida imoratga zarar yetkazilsa;
- Sug'urta hodisasi haqida shartnomada belgilangan muddatda xabar berilmasa;
- ko'rilgan zarar miqdorini aniqlashning imkoni bo'lmasa;
- yetkazilgan zarar aybdor shaxs tomonidan qoplangan bo'lsa.

12.2. Quyidagi siyosiy tavsifga ega bo'lgan hodisalar tufayli, imoratga yetkazilgan zarar qisman yoki to'liq qoplanmaydi:

- urush va harbiy harakatlar (urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar), g'alayon, inqilob, qo'zg'olon, isyon, fitna, ish tashlash, lokaut, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik harakatlari, musodara qilish, rekvizitsiya, hukumat yoki uning tarkibiy qismi topshirig'iga asosan buzib tashlanishi yoki unga zarar yetishi harakatlari, yadro reaksiyasi, yadro nurlanish yoki radioaktiv zararlanishi yoki nobud bo'lishi holatlarida.

XIII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

Mazkur Qoidalar asosida tuzilgan Sug'urta shartnomasining shartlarini bajarmaganlik yoki kerakli darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlarida belgilangan javobgarlikni teng darajada olib boradilar.

XIV. NIZOLARNI HAL ETISH

Mazkur Qoidalardan kelib chiqadigan barcha bahs va munozaralar tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan hal qilinadi. Kelishish imkoni bo'lmagan holda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligi asosida hakamlik yoki iqtisodiy sudiga ko'rib chiqish uchun beriladi.